

билан бирга, жисмоний бакуватлик, | сингдирилган.
чаққонлик, мардлик, жасурлик тарбияси ҳам

Адабиётлар рўйхати:

1. Тошпўлатов Ж., Жумакул А. Сурхон полвонлари. –Термиз: Жайхун, 1995. – Б.125.
2. Турсунов С.Н., Пардаев Т., Бегимкулов О. Ўзбек миллий кураши тарихи ва анъаналари. – Термиз: Сурхоннашр, 2015. –Б. 44.
3. Умаров И., Раҳмонов Ҳ., Худойбердиев Э. Сурхон воҳасида этник тарих ва этномаданий жараёнлар (хатакилар уруғи мисолида). –Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2014. –Б. 211-212.
4. Турсунов С., Пардаев Т., Турсунов А., Тоғаева М. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудларида номоддий маданият тарихи. –Тошкент: Мухаррир, 2012. –Б. 151–152.
5. Умаров И. Бадаш: тарих ва анъана. –Термиз: Сурхоннашр, 2018. –Б. 93.
6. Умаров И., Раҳмонов Ҳ., Худойбердиев Э. Сурхон воҳасида этник тарих ва этномаданий жараёнлар... –Б. 213.
7. Турсунов С., Пардаев Т., Турсунов А., Тоғаева М. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудларида номоддий маданият тарихи. –Тошкент: Мухаррир, 2012. –Б. 151–152.
8. Турсунов С.Н., Пардаев Т., Бегимкулов О. Ўзбек миллий кураши тарихи ва анъаналари. – Б. 40.

SURXON VOHASIDA YUZ (JUZ) LARNING MILLIY KIYIM-KECHAKLAR VA ZEB-ZIYNAT BUYUMLARI

Dulanov Otabek Yuldashevich,

Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi (PhD)

Annotatsiya: O'zbek xalqining ananaviy kiyimlari va taqinchoqlari moddiy madaniyatning mushtarak bir qismini tashkil etib, xalqimizning milliy xususiyatlari, urf odatlari hamda estetik didini namoyon etgan. Boshqa xalqlar kiyimlari singari o'zbeklarning ananaviy kiyimlari uzoq tarixiy jarayonlar davomida, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish hamda urf-odat, marosim, an'analar ta'sirida davrlar o'tishi davomida o'ziga xos xususiyatda shakllanib, rivojlanib kelgan.

Kalit so'zlar: Kiyim-kechak, Vaxshivor, Sangardak, Sho'rchi, Qarluq, G.Arandarenko, «kuloh», «qalpoq», jiyda, o'rik (zardoli), jinjaq, «ko'krakband», «pesh chak», «peshkumo», «Elka yoqali», «kiftaki», «halqayi Muhammadi», «muhammadi sirg'a», «uch oyoqli», «besh oyoqli».

Абстрактный: Традиционная одежда и украшения узбекского народа являются общей частью материальной культуры и отражают национальные особенности, обычаи и эстетический вкус нашего народа. Как и одежда других народов, традиционная

одежда узбеков формировалась и развивалась по-своему в ходе длительных исторических процессов, под влиянием социально-экономического развития, обычаев, обрядов и традиций.

Ключевые слова: Одежда, Вахшивор, Сангардак, Шорчи, Карлук, Г. Арандаренко, «шапка», «кепка», жийда, абрикос, джинджак, «нагрудник», «пеш» чак», «пешкумо», «погон», «кифтаки», «халкайи Мухаммади», «серьга Мухаммади», «трехногий», «пятиногий».

Abstract: The traditional clothes and jewelry of the Uzbek people are a common part of the material culture and show the national characteristics, customs and aesthetic taste of our people. Like the clothes of other nations, the traditional clothes of Uzbeks have been formed and developed in their own way during long historical processes, under the influence of social and economic development, customs, rituals, and traditions.

Key words: Clothing, Vakhshivor, Sangardak, Shorchi, Qarluq, G. Arandarenko,

"hat", "cap", jiyda, apricot, jinjak, "breastplate", "pesh" chak, "peshkumo", "shoulder collar", "kiftaki", "halqayi Muhammadi", "Muhammadi earring", "three-legged", "five-legged".

Kiyimlar davrlar o'tishi bilan, ijtimoiy-siyosiy rivojlanish jarayonida o'ziga xos tarzda rivojlanib boradi. Bu esa tadqiqotchilardan kiyimlar tarixini o'rganish va uni yoritishda katta mas'uliyat talab etadi. Chunki xalqlarning etnik tarkibini o'rganishda hamda uni ilmiy asoslashda kiyimlarning davrlar o'tishiga qaramasdan o'z milliyligini saqlab qolganligi o'ziga xos o'ringa ega [8;C.151-168].

Eng avvalo, kiyim-kechaklarni ilmiy tahlil etishda ularning asosini tashkil etgan matolar va mato tayyorlash usullariga to'xtalmoq lozim.

Tadqiqotda XIX asr oxiri – XX asrning birinchi yarmida O'zbekiston hududi, qolaversa, Surxon vohasi yuz (juz)larida kiyim-kechaklar uchun zarur bo'ladigan matolar asosan uy sharoitida tayyorlangan. Hudud aholisi dehqonchilik va chorvachilik bilan ko'proq mashg'ul bo'lganligi uchun matolar paxta va jundan, ba'zi hollarda esa ipakdan tayyorlangan. XX asrning boshlariga qadar Vaxshivor, Sangardak, Sho'rchi va Qarluq kabi hududlarda teriga ishlov berib, bosh, ustki va oyoq kiyimlar hamda shu kabi boshqa kiyimlar ishlab chiqarish o'ziga xos tarzda rivojlangan[9].

Surxon vohasi yuz (juz) larining yuz, va kam sonli etnik guruhlar paxtadan turli xildagi matolar to'qigan. Chorvachilik bilan shug'ullangan do'rmon, yuz, qo'ng'iroq va shu kabi urug'lar aholisi ko'proq jundan mato to'qiganlar.

Umuman, xalqona kiyimlar uchun asos bo'lgan matolarni tayyorlashda ham badiiy uslub asta-sekin o'zgarib bordi, ammo XX asrning 20-yillari oxiridayoq to'qish texnikasida muayyan siljishlar sodir bo'lgan. Chunonchi, mahalliy ustalar tomonidan ishlab chiqariladigan matolarga fabrika iplarining qo'shilishi, jumladan, mahalliy usulda tayyorlanadigan alachalarga Rossiya fabrikalarida tayyorlangan iplarni qo'shib tayyorlash ularning yuqori sifatli, nafis va tekis matoga aylanishiga olib kelgan[5;C.18]. Lekin Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida ishlab chiqarilgan matolar o'zining an'anaviy ko'rinishini saqlab qoldi. Bu davrda voha aholisi

kiyimlari avloddan-avlodga o'tib kelayotgan qadimiy matolardan – olacha, bo'z, xonatlas, qalami, banoras, shoyi, beqasam, adras, so'si va boshqa matolardan tikilgan.

Tadqiqotda XX asr boshlarida rasm bo'lgan o'ziga xos chiziq o'tkazish uslubi davom ettirilgan va rivojlantirilgan. Ayollar va bolalar uchun kiyim tikishda ishlatiladigan beqasamning och pushti rangi paydo bo'lgan. 1930-yillarda nimshoyi matolarni ishlab chiqarishda gulbosma usulda mato ishlab chiqarishga ixtisoslashgan rus fabrikalarida ishlab chiqarilgan arzon ip gazlamalarning ko'plab keltirilishi munosabati bilan mahalliy matolar keskin kamayib ketgan[4;B.115-116].

XX asrning 40-yillariga kelib Respublikadagi to'qimachilik kombinatlari va fabrikalarida chit, satin, maya, shifon, batist, krepsatin, kashemir kabi matolar ishlab chiqarila boshlangan va bu mahsulotlarning aksariyati mahalliy aholi tomonidan kiyim-kechaklar va uy-ro'zg'or buyumlari uchun xarid qilingan.

Tarixiy-etnografik adabiyotlardan ma'lumki, Surxon vohasi yuz (juz) larining milliy kiyimlarining taraqqiy etib, o'zgarib borishi doimiy jarayon bo'lsa-da, lekin kiyim-kechaklardagi jiddiy burilishlar XIX asr so'nggi choragida va XX asrda yuz bergan. Ayniqsa, ulkan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar va fan-texnika taraqqiyoti davri hisoblangan XX asrda Surxon vohasida yuz (juz) larning milliy kiyimlari rivojida «inqilobiy» o'zgarishlar sodir bo'lib, ularning konstruktiv-texnologik va kompozitsion qurilishida yangi usullar, bichimlar paydo bo'lgan[4;B.113]. Surxon vohasi yuz (juz) larining an'anaviy kiyimlarining transformatsiyasini maxsus tadqiq qilgan S. Davlatovning yozishicha, bu davrda bir tomondan, O'zbekiston hududida sodir bo'lgan turli tarixiy jarayonlar, xususan, o'zbeklar turmush tarziga rus va Yevropa madaniyatining jadal kirib kelishi mintaq xalqlarining ma'naviy hayotiga sovet mafkurasining majburan joriy etilishi bilan birga texnika taraqqiyotidagi qator o'zgarishlar ham milliy kiyimlarning tikilishi, bichimi, shakli va kiyimlar uchun ishlatiladigan mato turlari hamda mato tayyorlash texnologiyasining jiddiy o'zgarishiga olib kelgan[4;B.113].

Umuman olganda, Surxon vohasi yuz (juz)

larining an'anaviy milliy kiyimlarining evolyusiyasi va transformatsiyasini tadqiq qilish shuni ko'rsatdiki, tadqiqot davrida erkaklarning kiyim-boshlari ayollarnikiga qaraganda ko'proq o'zgarishlarga uchragan bo'lsa-da, lekin aynan voha erkaklari kiyimlarida Respublikamizning boshqa hududlariga qaraganda milliylik ustun ahamiyat kasb etgan.

Surxon vohasida yuz (juz) larining engil kiyimlaridan biri ko'ylak bo'lib, ko'ylaklar o'yma yoqa, elka yoqa hamda kiftaki deb nomlanib, yoqalari qo'lda tikilgan hoshiyalar yoki jiyaklar bilan bezatilgan. Bo'yi tizzadan pastga tushirilgan bo'lib, englari keng hamda uzun bo'lgan[10].

Surxon vohasi yuz (juz) larining erkaklarning kiyim tagidan kiyadigan engil ich kiyimlaridan biri yaktak ko'ylakdir. Yaktak ko'ylakning yoqasi ichidan to'rtburchak shaklda qo'shimcha mato qo'yilib, oldi ochiq bo'lgan[11]. Yengil kiyimlardan bo'lgan tik yoqali ko'ylak, uzun va keng englari, bo'yi hamda uzun old yoqasi bilan farq qilgan[12].

Surxon vohasi yuz (juz) larining erkaklari kiyadigan ishton cholbar, poyjoma deb atalib, uzun va keng bo'lib, lipa, og' (g'ishtak) hamda poychadan iborat bo'lgan. Ishtonning tikilish uslubi vohada deyarli bir xil bo'lgan. Xususan, lipasiga ishtonbog' o'tkazilib, og'i katta bo'lib, poycha oralig'ida osilib turgan. Poychalari esa tizzadan past, to'pig'dan baland holda tikilgan. Erkaklarning ishtonlari asosan bo'zdan tikilgan[13].

Tadqiqotda XX asrning 30-40-yillaridan boshlab Surxon vohasi yuz (juz) larining erkaklar kiyimlarida ayrim o'zgarishlar sodir bo'lgan bo'lib, erkaklar ishtonining o'rniga shimlar kiyish rasm bo'la boshlagan. Mahalliy erkaklar orasidan chiqqan partiya rahbarlari, o'qituvchilar orasida qora va ko'k rangdagi movut yoki jundan ikki yoni chiqarib tikilgan galife shimlarni pochasi tor, qora yoki jigar rang etik bilan birga kiyish rasm bo'lgan. Yozda esa engil kitel va qattiq matodan tikilgan shim kiyilgan. Ba'zida kitel bilan pastki qismi qaytarilgan uzun shim ham kiyilgan. Lekin o'z navbatida shuni ham aytib o'tish kerakki, yangi rusumdagi kiyimlarning kirib kelishi milliy bichimdagi kiyimlarni butkul siqib chiqara olmagan va milliy hamda zamonaviy bichimdagi kiyim-boshlar o'zaro uyg'unlikda

kiyilgan. Chunonchi, vohada ham Respublikaning boshqa hudud (region) larida bo'lgani singari bu davrda erkaklar evropacha fasondagi kostyum-shimlarni oldi hamda yoqasi kashtalangan milliy bichimdagi ko'ylaklar bilan birga kiygan[4;B.125].

Surxon vohasi yuz (juz) larining belbog'i qadimdan o'zbek va tojik xalqlari tomonidan e'zozlanib kelinadi. Belbog' erkaklar ust kiyimi, ya'ni chopon, jelak ustidan belga bog'lanadigan ro'mol bo'lib, bo'z, shoyi kabi matolardan kashtali hamda kashtasiz tikilgan. Belbog'ni vohaning Oltinsoy tumani Jobu, Qarluq, Ipoq va Qumpaykal qishloqlari ayrim aholisi «belqars» deb atagan[14]. Surxon vohasi yuz (juz) larining chorvador aholisining jundan to'qilgan matolardan ham belbog'lari bo'lgan[3;C.112]. XX asrning birinchi choragida vohada chopon kiyganda albatta, belbog' bilan belini bog'lab yurganlar. Shuningdek, to'ylarda sarpo sifatida, erkak kishilar beliga belbog' bog'langan. Xususan, to'yda kuyovga to'n kiydirib, belbog' bog'lashgan. Yoshi katta keksa kishilar oq matodan tikilgan belbog'lar bog'lashgan. Yosh yigitlar esa katta rangdor kashtali, bezakli belbog'lar bog'lashgan. Davlatmand odamlar ikki, uchta belbog' bog'lab yurishgan. Bu esa ularning qay darajada hurmat e'tiborga loyiqligi hamda boyligidan dalolat bergan[15]. XX asrning 30-40-yillariga kelib yoshlar va o'rta yoshdagi erkaklar belbog' bog'lamay qo'yanlar. Bu esa vohada erkaklarning belbog' bog'lash an'anasining asta-sekin kundalik turmushdan chiqqan boshlaganligidan dalolat beradi.

Turkiy xalqlarda bosh kiyimni tikish, kiyish hamda u bilan bog'liq urf-odatlar qadimdan rivojlangan. Mamlakatimizda, qolaversa, Surxon vohasi yuz (juz) larining erkaklarining keng tarqalgan bosh kiyimlari salla, do'ppi va telpakdir. Vohada madrasada ta'lim olayotgan yosh yigitlar[7] va yangi uyulanayotgan kuyovlar o'raganlar[16].

Tadqiqotda Surxon vohasi yuz (juz) larining erkaklar bosh kiyimlaridan yana biri do'ppi bo'lib, tikilish uslubi, bezatilishiga ko'ra bir-biridan farq qilgan[6;C.350-351]. Do'ppi avra, astar, jiyak hamda piltadan tashkil topgan. Dastlab har biri alohida tikilib, keyin qo'shib tikilgan. Do'ppilarning tikilishida salla, salla tagidan kiyadigan dumaloq, qirrali, ya'ni

«kuloh» hamda o'zi yakka holda kiyiladigan to'rt burchak xillari bo'lgan[17]. Shuningdek, vohada chorvador aholi qish fasli uchun tuya junidan to'qilgan matodan ham do'ppi tikkanlar. Vohaning qo'ng'iroq, yuz urug'iga mansub aholisi do'ppini «qalpoq» deb atashgan[18].

XIX asr oxiri – XX asrning birinchi yarmida Surxon vohasi yuz (juz) larining an'anaviy oyoq kiyimlari mahalliy ustalar tomonidan tikilgan bo'lib, takaki, choriq, hakkari, mo'kki, toshtovon kabi oyoq kiyimlar tayyorlangan. Etik hamda maxsi-kovushlarni vohadagi hamma ustalar ham tayyorlay olmagan. Bu xildagi oyoq kiyimlar uchun xomashyo sifatida ot, tuya, qoramol, qo'y va echkin oshlangan (iylangan), terilaridan foydalanilgan. Teri jiyda, o'rik (zardoli), jinjaq ildizlaridan qaynatib tayyorlangan suvga 2-3 kun solib qo'yiladi. Qizg'ish rangga kirgan bu teri oshlangan. Takaki asosan qoramol terisidan qilingan. Shuningdek, choriq hamda popushlar ham qoramol terisidan tikilgan.

Masalan, choriqning orqa to'voni tagidan tasma ip qilinib, oyoqqa aylantirib bog'lab qo'yilgan. Choriqlar asosan yog'in-sochin davrida kiyilgan[2;C.230]. Maxsi va mo'kkilar sarka terisidan tikilgan. Asosan yog'ingarchilik davrida kiyiladigan hakkari kovushlar yog'ochdan yasalgan[1;C.246-248]. O'z navbatida XX asrning birinchi choragigacha erkaklar tomonidan ommaviy tarzda kiyilgan mukki, choriq kabi oyoq kiyimlari XX asrning 40-yillariga kelib fabrikalarda ishlab chiqarilgan poyabzallarning vohaga kirib kelishi natijasida kundalik hayotdan chiqib keta boshlagan.

Xuddi shu davrdan boshlab vohada ham boshqa mintaqalarda bo'lgani singari fabrikalarda ishlab chiqarilgan paypoqlarni kiyish ham mahalliy aholining ayrim qatlamlari orasida rasm bo'lgan. Ilgari mahalliy aholi oyoq kiyimlarini paytava yoki jundan to'qilgan

paypoqlar bilan birga kiygan bo'lsa, XX asrning 50-yillaridan boshlab fabrikalarda ishlab chiqarilgan paxtali paypoqlarni kiyish tarqalgan. Qolaversa, aynan mazkur davrda an'anaviy oyoq kiyimlar o'rniga xrom etik va botinkalar kirib kela boshlagan.

O'zbeklarning qadimiy va milliy kiyim-boshlarini o'zida mujassamlashtirgan Surxon vohasi yuz (juz) larining ayollarining kiyimlari etnografik va faktik materiallarga boyligi bilan ajralib turadi. Ayollar kiyimlari yil fasllariga qarab qishki, bahorgi, yozgi, kuzgi kiyimlarga; qaysi holatda kiyilishiga ko'ra kundalik, bayram va marosim kiyimlariga; tananing qaysi qismiga kiyilishiga qarab ichki, ustki, bosh, oyoq kiyimlariga bo'lingan.

Xulosa qilib shuni alohida ta'kidlash kerak, Surxon vohasi yuz (juz) larining an'anaviy kiyimlari va taqinchoqlari o'zbek maishiy moddiy-ma'naviy madaniyatining ajralmas qismi sifatida, o'zida milliy xususiyatlarni aks ettirgan. Moddiy madaniyatning muhim komponenti bo'lgan an'anaviy turarjoylar, kiyim-kechaklar va taomlarida aynan etnik guruhlarining xo'jalik-madaniy an'alaridan kelib chiqqan holda ko'plab umumiyliklarga ega bo'lishi bilan birga o'ziga xos tafovutlarga ega edi. Masalan, sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi etnik guruhlarda bu komponentlar bir qadar konservativ xarakterda bo'lib, tashqi etnik omillar ta'sirida o'zgarishga juda kam uchraydi hamda inoetnik ta'sirlarni ham o'ziga singdirib yuborgan. Chunki, o'troq aholining moddiy madaniyati asrlar davomida shakllangan tarixiy mahalliy o'zak madaniyatga tayanadi. Mahalliy o'troq aholining uy-joylari intereri, kiyim-kechaklar tayyorlash va tanlashdagi tajribasi va estetik didi, taom tayyorlashdagi boy pazandachilik an'analari qadimiy o'troq madaniyatga asoslangan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Андреев М.С. Таджики долины Хуф. – Душанбе, 1953. Вып. II. –С. 246-248.
2. Антипина К.И. Особенности материальной культуры и прикладного искусства южных киргизов. –Фрунзе: Академиа наук КиргССР, 1962. –С. 230.
3. Борозна Н.Г. Материальная культура узбеков Бабатага и долины Кафирнигана // Материальная культура народов Средней Азии и Казахстана. –М., 1966. –С. 112.
4. Davlatova S. Qashqadaryo milliy kiyimlari: an'anaviylik va zamonaviylik. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. –B. 113, 115-116, 125.

5. Сухарева О.А. Художественные ткани // Рукопис Института искусствознания. Инв. 291. –С. 18.
6. Сухарева О.А. Древние черты в формах головных уборов народов Средней Азии // ТИЭ. – М., 1954. Т. XXI. –С. 350-351.
7. Tursunov S.N. Surxondaryo viloyati tarixini o'rganish. –Toshkent, 1997. –B. 43-44; Mualliflar jamoasi. Surxondaryo. –Toshkent, 1996. –B. 172-173;
8. Аршавская З.А., Ртвеладзе Э.В., Хакимов З.А. Средневековые памятники Сурхандарьи. – Ташкент, 1982. –С. 67-68.
8. Задыкина К.Н., Сазонова М.В. Мужская одежда узбеков Хорезма конца XIX – начала XX в. // Костюм народов Средней Азии. –М., 1979. –С. 151-168.
9. Dala yozuvlari. 2019-2020 yillar. Sho'rchi, Oltinsoy, Denov, Sariosiyo, Uzun tumanlari.
10. Dala yozuvlari. 2020 yil Oltinsoy tumani Lo'kka, Bodihavo, qishloqlari; 2020 yil. Uzun tumani Xo'jaasmin, Xavot qishloqlari.
11. Dala yozuvlari. 2020 yil Qumqo'rg'on tumani Jiydali, Jonbosh qishloqlari; 2020 yil. Sariosiyo tumani Tog'chion, Gazarak qishloqlari.
12. Dala yozuvlari. 2020 yil. Sho'rchi tumani Obodon, Shaldiraq qishloqlari; 2020 yil. Uzun tumani Chaqar, Beshkapa qishloqlari.
13. Dala yozuvlari. 2020 yil. Denov tumani Dahana, Dunyotepa qishloqlari; 2021 yil. Qumqo'rg'on tumani Kal, Xo'jamulki qishloqlari.
14. Shaniyazov K.Sh., Ismoilov X.I. Ko'rsatilgan asar. –B. 74-75.
15. Dala yozuvlari. 2019-2020 yillar Oltinsoy, Denov, Sariosiyo tumanlari.
16. Dala yozuvlari. 2019 yil Uzun tumani Boybicha, Qurusoy, Xavot qishloqlari.
17. Dala yozuvlari. 2019 yil. Qumqo'rg'on tumani Bag'ara, Jiydali qishloqlari.
18. Dala yozuvlari. 2020 yil. Oltinsoy tumani Bibi Zaynab, Bo'lak, Ipoq qishloqlari.
- Dala yozuvlari. 2021 yil. Qumqo'rg'on tumani Jaloyir, Oqjar qishloqlari; 2021 yil. Sho'rchi tumani Baxshepa, Oqtumshuq qishloqlari.

THE SKILLS OF THE TAJIKS LIVING IN THE OASIS IN HORSE AND CATTLE BREEDING

Akhmedov Sardor Sayriddin son,
doctor of philosophy (PhD), teacher of the department of world history of
Termiz State University

Abstract: A comparative study of the national Horse-breeding of the Tajik ethnic communities of the Surkhandarya oasis shows that the traditional ethnic aspects. The inhabitants of the oasis go in for horse breeding since the ancient times. Before the beginning of kupkari (goat breaking competition) the stable man who tests are called testing stable-men.

Keywords: Kupkari, Ulak, Siyobayir, Arabi, Horse, Draught horses, Saman, Jiyron, Chakir.

Аннотация: Сравнительное изучение национального коневодства таджикских этносов Сурхандарьинского оазиса показывает наличие традиционных этнических аспектов. Жители оазиса

занимаются коневодством с древнейших времен. Перед началом купкари (соревнования по разбиванию коз) конюха, проводящего испытания, называют конюхами-испытателями.

Ключевые слова: Купкари, Улак, Сиебайир, Араби, Лошадь, Тяжёлые лошади, Саман, Жийрон, Чакир.

Annotatsiya: Surxon vohasi tojik elatlarining milliy yilqichilikni qiyosiy o'rganish an'anaviy etnik jihatlar mavjudligini ko'rsatadi. Voha aholisi qadimdan yilqichilik bilan shug'ullangan. Ko'pkari (suyak sindirish musobaqasi) boshlanishidan oldin sinovlarni o'tkazuvchi kuyovga sinov kuyovlari deyiladi.

Tayanch so'zlar: Ko'pkari, Uloq,